

MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA KUZATUV KENGASHI MAQSAD VA VAZIFALARI

Turakulova Nargiza Tolibjanovna

Sirdaryo viloyati Yangiyer shahar 6-sonli DMTT tarbiyachisi

Guliston davlat Universiteti maktabgacha ta'lim fakulteti

4-kurs talabasi

Annotatsiya *Biz quyidagi ilmiy maqola yordamida bugungi kunda maktabgacha ta'lim tashkilotlarida olib borilayotgan islohotlar hamda ularning samaradorligi, shu navbatda kuzatuv kengashining bu boradagi ahamiyati hususidagi ma'lumotlarga ega bo'lasiz.*

Kalit so'zlar: *maktab, oila , MTT, mahalla, bolalar, pedagog-tarbiyachi, kitob, ota-on*

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev

"Zamonaviy maktabgacha ta'lim sog'lom va barkamol avlodni voyaga yetkazishda muhim o'rinn tutadi" deya ta'kidlaydi.

Kirish

Hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim vazirligi tasarrufidagi maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarni sifatli maktab ta'limiga tayyorlashga alohida e'tibor qaratilmoqda. Buning isboti o'laroq 2018-yilda maktabgacha ta'lim sohasida bolalar qamrovi 34,4% ni tashkil etganbo'lsa, bu ko'rsatgich 2023-yil yarim yilligi yakunida 70,5% ni tashkil etdi. Bu albatta davlat rahbarining maktabgacha ta'lim sohasida chiqarayotgan qarorlari va e'tiborlari natijasidir. Shu o'rinda haqli bir savol tug'iladi. Qanday qilib ta'lim jarayonini mushkullikdan quvonchli jarayonga aylantirsa bo'ladi? Shuni aytib o'tish joizki, sifatli ta'lim birinchi navbatda ta'lim beruvchi tarbiyachi, pedagogning kasbiy mahoratiga bog'liqdir. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil, 30-sentyabrdagi PQ-3955-son "Maktabgacha ta'lim tizimini

boshqarishni takomillashtirish chora tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori va O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim vazirining 2018-yil, 21-noyabr 2-MX sonli buyrug‘i asosida maktabgacha ta’lim tashkilotlarida kuzatuv kengashi ish boshladi.

Maktabgacha ta’lim agentligining 2023 yil 28-avgustdagи 99-sonli buyrug‘ida Davlat Maktabgacha ta’lim tashkilotlarining ish hujjatlari ro’yxati ko’rsatilgan.Ushbu ro’yxatning 01-07 raqamli indeks ostida Davlat maktabgacha ta’lim tashkiloti Kuzatuv kengashi hujjatlari yuritilishi ko’rsatib o’tilgan.

Kuzatuv kengashi raisi ota-onalardan, kengash kotibi mакtab o‘qituvchilaridan, a’zolari MTT pedagoglari, ota-onalar, mahalla vakillaridan tashkil topdi. Bu esa MTTning yanada ravnaq topishi uchun ayni muddao bo‘ldi. Kuzatuv kengashi MTTda bo‘ladigan ta’lim-tarbiya jarayoni, uning moddiy texnik bazasi, tarbiyalanuvchilarga yaratilgan qo‘srimcha xizmat turlari, bolalarni sifatli ovqatlantirishni, MTTdagi joriy ta’mirlash ishlarida, hattoki, MTT rahbarini saylashda o‘z tavsiyasini berish huquqiga ega bo‘ldi. Mahalladagi kam ta’minlangan oilalarni o‘rganib chiqib, ularning farzandlariga MTTda ta’lim-tarbiya olish imkonini yaratdi.

Albatta mashg‘ulotlar tarkibiga yangiliklarni kiritish, ilg’or ish uslublari va metodlarni qo’llash ta’lim sifatini oshirishga olib keladi. Bu esa o‘z o‘rnida pedagogdan kasbiy mahorat talab etadi. Barchamizga ma’lumki, bola uchun birinchi va eng mukammal tarbiyachi bu ota-onadir. Shunday ekan, oila bilan hamkorlik masalalari, ayniqsa bola tarbiyasida otalar o‘rni muhimligiga alohida e’tibor qaratish lozim.

Maktabgacha ta’lim vazirining buyrug‘i bilan Maktabgacha ta’lim tashkilotining kuzatuv kengashi haqidagi namunaviy [nizom tasdiqlandi](#).

Nizomga ko‘ra, kengashning asosiy maqsadlari quyidagilardan iborat:

- Muassasaning ustuvor vazifalarini belgilash;
- Maktabgacha ta’lim tuman (shahar) bo‘linmasi tomonidan tavsiya etilgan nomzodlar tarkibidan maktabgacha ta’lim tashkiloti direktorini saylash;
- tashkilotning maqsadlari va vazifalarini hamda ularga erishish rejalarini tasdiqlash;
- tashkilotda amalga oshirilishi belgilangan vazifalarning bajarilishi va maqsadli ko’rsatkichlarga erishilishi ustidan nazorat olib borish.

Kengashning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- Hududiy bo'linma tomonidan tavsiya etilgan nomzodlar tarkibidan tashkilot direktorini saylash, shuningdek uni egallab turgan lavozimidan ozod etish haqida tashkilotni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlarini belgilash;
- tashkilot faoliyatini takomillashtirish, moliyaviy-xo'jalik holati, daromadlar va xarajatlar, byudjyet va byudjyetdan tashqari hamda homiylik mablag'laridan foydalanish bo'yicha amalga oshirilgan ishlar to'g'risida tashkilot rahbarining hisobotlarini tinglash;
- tashkilotning yillik moliyaviy rejalarini, ko'rsatilayotgan pullik xizmatlar narxining miqdorlarini tashkilot mulkidan foydalanganlik uchun ijara haqi miqdorini, shu jumladan auksiondag'i boshlang'ich narxni tashkilot rahbarining ishtirokida tanishib chiqish va takliflar berish;
- tashkilot rahbari, pedagog va boshqa xodimlarining faoliyati bo'yicha jtimoiy so'rovlari o'tkazish;
- tashkilotda tarbiyalanuvchilar uchun qulay shart-sharoitlar yaratish hamda ularni yaxshilash bo'yicha ota-onalar va jamoatchilik tashkilotlari va homiyalar bilan hamkorlik qilishda amaliy yordam ko'rsatish;
- tashkilotni rivojlantirishga doir ustuvor yo'nalishlarni belgilash bo'yicha ta'lim tashkiloti rahbarining dastur va rejali yuzasidan hududiy bo'linmaga takliflar kiritish;
- tashkilotning xodimlarini rag'batlantirish bo'yicha hududiy bo'linmaga takliflar berish.

Tashkilotda bolalarning sifatli ta'lim olishlari, ularga tegishli shart-sharoitlar yaratish hamda ta'lim-tarbiya jarayonlarini qo'llab-quvvatlash maqsadida tashkilot rahbariga ko'maklashish uchun har bir tashkilotda Kengash tashkil etiladi.

Kengash **11** kishidan kam bo'limgan toq sondan iborat tarkibda tuziladi. Bunda, Kengash tarkibiga tashkilotning pedagoglari orasidan **2** nafar, tarbiyachi yordamchilari orasidan **2** nafar, tashkilot ma'muriyatidan **1** nafar, tegishli hududiy bo'linmadan 1 nafar, jamoat tashkilotlari va homiyalar orasidan 2 nafar hamda har bir guruhida tarbiyalanuvchilarning ota-onalaridan kamida 3 nafar a'zo kiritiladi.

Kengash o‘ziga yuklatilgan vazifalarini amalga oshirishda quyidagi huquqlarga ega:

Tashkilotning tegishli davrdagi faoliyati bo‘yicha tashkilot rahbaridan ma'lumotlar so'rash va olish;

Tashkilotning moliyaviy hisobotlari bilan tanishish;

Homiylilik va xayriya mablag‘larining kirim qilinishi va sarflanishi haqidagi ma'lumotlar bilan tanishish;

Tashkilot pedagog xodimlarining sha'ni, qadr-qimmati, obro‘sini himoya qilish bo‘yicha takliflar kiritish.

Adabiyotlar

1. “Bolangiz maktabga tayyormi?” O‘z. Res. Xalq ta’limi vazirligi Respublika ta’lim markazi, Ma’rifat-Madadkor nashriyoti.

2. O‘.Otavaliyeva. Bola tarbiyasida bog‘cha va oila hamkorligi. T.:1998y.

3. Z.G’ofurov, S.Toshev. Ma’naviyat saboqlari. Qarshi. 1999-y.

4. MTTda qisqa muddatli guruhlar faoliyatini tashkil etishda tarbiyachilarni tayyorlash bo‘yicha trening moduli. T.: 2017-y.

5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil, 30-sentyabrdagi PQ-3955-son “Maktabgacha ta’lim tizimini boshqarishni takomillashtirish chora tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori.2018 y